

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqi
UDK: 336.2:33M(575.1)

SAIDOVA O'G'ILOY RUSTAMJON QIZI

XALQARO SAVDODA SOLIQ NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) olish uchun
yozgan
DISSERTATSIYASI

Toshkent shahri – 2024 yil

Kirish	3
1 BOB. XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA SOLIQ NAZORATINING NAZARIY ASOSLARI	13
1.1. § Xalqaro savdoda soliqlarning nazariy huquqiy asoslari.....	13
1.2. § Xalqaro savdo operatsiyalarida soliq nazoratining ahamiyati, turlari va xususiyatlari.....	
1.3. § Xalqaro savdo munosabatlarida soliqqa tortishning xorij tajribasi.....	27
1-bob bo'yicha xulosalar	38
2 BOB. XALQARO SAVDO OPERATSIYALARIDA SOLIQ NAZORATINING AMALIY TAHLILI	41
2.1. § Xalqaro savdoda soliqlarga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.....	41
2.2. § Import operatsiyalarida soliqlarga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.....	52
2.3. § Xizmatlar importi bo'yicha soliq nazorati tahlili.....	60
2-bob bo'yicha xulosalar	74

3 BOB. XALQARO SAVDODA SOLIQ NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	76
3.1. § O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatida soliqqa tortish muammolari va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari.....	76
3.2. § Xalqaro savdoda soliq nazoratini takomillashtirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'sir etish	85
3-bob bo‘yicha xulosalar	96
XULOSA VA TAKLIFLAR	98
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	100
ILOVA	106

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlarning o‘zaro integratsiyalashuvi ko‘plab xalqaro tashkilotlar, ayniqsa Jahon savdo tashkiloti (JST)ning nufuzini oshishiga xizmat qilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi aksariyat mahalliy korxonalarining xalqaro darajada raqobatbardosh emasligi, milliy iqtisodiyotga monopol korxonalarining yuqori ta’sir doirasi tufayli mamlakatning JSTga kirishini sekinlashishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, JSTga a’zo bo‘lish jarayonida xalqaro darajadagi savdo operatsiyalaridagi soliq tushumlari ustidan nazoratni takomillashtirish masalasi muhim hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “butun dunyo bo‘ylab yiliga umumiy hisobda 483 milliard dollar hajmdagi mablag‘ xalqaro soliqlardan qochish orqali yo‘qotilmoqda. Ulardan 312 milliard dollari yuridik shaxslar hissasiga to‘g‘ri kelsa, 171 milliard dollari esa jismoniy shaxslar zimmasiga tushadi. Korporativ soliqlardan qochishning 99,4 % yuqori daromadli mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Ammo, quyi daromadli mamlakatlarda yo‘qotilgan soliqlarning soliq tushumlaridagi ulushi yuqoriroq hisoblanadi”¹. Xalqaro tijoratdagi soliq nazorati yordamida byudjetning daromadlar qismini shakllantirish, tashqi savdo balansini optimallashtirish, tadbirkorlarning eksport faoliyatini preferensiyalar orqali rag‘batlantirish, mamlakat iqtisodiyotida mahsulotning nisbiy afzalligidan kelib chiqib import operatsiyalarini o‘rnatilgan soliqlar orqali tartiblash lozim.

Jahonda global raqobat kuchayayotgan bir davrda xalqaro miqyosidagi savdo munosabatlari ustidan nazoratni yanada takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar kundan-kunga ko‘paymoqda. Xalqaro savdodagi soliqlarning ahamiyatini

1

<https://www.taxobservatory.eu/repository/the-state-of-tax-justice-2021/#:~:text=TJN%20estimates%20that%20the%20world,99.4%25%20of%20corporate%20tax%20losses.>

oshirishdan tashqari ularda soliq nazoratini amalga oshirishga ma'sul organlar faoliyati samaradorligini ta'minlash hamda nazoratni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish, soliq tushumlaridagi o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va baholash, xizmatlar importida undirilgan soliqlarni tartibga solish, savdo munosabatlarining xalqaro darajasida soliq nazoratini yaxshilash orqali respublika byudjeti daromadlarini oshirish masalalari ushbu mavzuda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining birlamchi yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda qulay investitsion muhit yaratish, aholi farovonligini oshirish maqsadida tadbirkorlarga tushayotgan soliq yukini optimallashtirish, soliq tizimini soddalashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday imkoniyatlar orqali tadbirkorlar nafaqat milliy bozorni, balki jahon bozorida o'z xaridorlarini topishga erishishlari mumkin bo'ladi. Shu maqsadda, "respublika eksport salohiyatini oshirish, eksportchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, tashqi savdo muvozanatini taminlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish uchun eksport bilan bog'liq savdo va eksportoldi operatsiyalarini moliyalashtirish uchun mablag'lar ajratish"² vazifalari belgilab berilgan. Respublikamiz xalqaro iqtisodiy hamkorligini yanada rivojlantirish, sog'lom raqobat muhitini mahalliy tadbirkorlar o'rtasida yaratish orqali milliy va jahon savdo bozorida sifatli, raqobatbardosh mahsulotlari bilan o'z o'rniga ega bo'lish bilan bir qatorda import operatsiyalarida Soliq kodeksida belgilangan soliqlardan qochmasdan, ularni shaffof, to'g'ri va adolatli hisoblash uchun soliq nazorati bo'yicha amaliyotga joriy qilish mumkin bo'lgan taklif va ilmiy tavsiyalarni asoslash, rejalashtirilgan soliq nazoratida e'tibor berish lozim bo'lgan omillar kabi masalalari dolzarb muammolardan biridir. Mazkur vazifalarning samarali amalga

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 13 июлдаги ПҚ-5184-сон "Экспорт фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш тўғрисида"ги қарори.

oshirilishida xalqaro savdo munosabatlarida soliq nazoratini takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi PF-97-son «Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 21-oktyabrdagi PF-6091-son «Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2019-yil 24-maydagi PQ-4337-son «Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-martdagi 167-son «O'zbekiston Respublikasida eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2021-yil 4-oktyabrdagi 618-son «Mahsulotlarni eksport qilishda tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» shu bilan birgalikda 2020-yil 14-maydagi 283-son «O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda ushbu sohaga taalluqli hisoblangan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirib o'tilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqaro savdo operatsiyalarida soliq nazorati masalalari qator xorijiy iqtisodchi olimlar, jumladan, D.Chakraborty, S.Mukherjee, J.Hallaert, R.Capeda, G.Kang, M.Seker, J.Felipe, U.Kumar, S.Djankov, C.Freund, C.Pham, P.Krugman, M.Obstfeld, M.Melitz va boshqalarning

ilmiy ishlarida uchraydi³.

MDH olimlaridan A.Pogorletsy, S.Sutyurin, O.Sokolovskaya, S.Novikova, D.Sidirov, I.Goncharuk, L.Plotnikova, A.Ilin, A.S.Advokatova va boshqalar xalqaro savdoda soliq nazorati masalalariga oid izlanishlar olib borganlar⁴.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan Sh.Toshmatov, B.Toshmurodova, O.Iminov, Sh.To‘raev, F.Sharipov, N.Asqarov, N.Qo‘zieva, I.Ergashev, L.Mingishov, Q.To‘xсанov, R.Kuziev xalqaro savdoda soliqqa tortishni bevosita va bilvosita tadqiq qilganlar⁵.

³ Debashis Chakraborty & Sacchidananda Mukherjee. How Trade facilitation Measures influence Export Orientation? Empirical Estimates with Logistics Performance Index data // Journal of Economics Library. 2016. Jean-Jacques Hallaert, Ricardo Cavazos Capeda, and Gimin Kang. Estimating the Constraints to Developing Countries Trade. Organization for Economic Co-operation and Development.-Paris, 2011.-86p.; Murat Seker. Trade Policies, Investment Climate, and Exports across Countries. World Bank Policy Research Working Paper No.5654, World Bank. - Washington, DC, 2010.-23p.; Felipe J., and Kumar U. The role of trade facilitation in Central Asia: A gravity model, Working Paper, №628.-New York: Levy Economics Institute, 2010.-42p.; Djankov S., Freund C. and Pham C. Trading on time. Review of Economics and Statistics, 92(1), 166173, 2010. – 24 p.; P.Krugman, M.Obstfeld, M.Melitz. International Economics. UK, 2018- 803 p.

⁴ Погорлецкий, А. И. Международное налогообложение: Учебник. – СПб.: «Михайлова В.А», 2006. – 384с.; Pogorletskiy A.I. and Sutyurin S. Taxation of international e-trade: Russian particularities. The chapter was funded by RFBR and CASS according to the research project. Chapter 8. 2019.–Pp.180-193.; Sokolovska O.V., (2016), Trade freedom and revenue from trade taxes: A cross country analysis, Vestnik of Saint-Petersburg University, Series 5, Economics 2: 2016.-Pp.52-67.; Novikova S.A., D E Sidorov, IV Goncharuk «New Technologies of Business Processes in the Sphere of Customs Administration of Export-Import Transactions and Payments». International science and technology conference «FarEastCon-2019», 2019-Pp.140-150.; Плотникова Л.А. Актуальные вопросы налогообложения экспортных операций. «Казанский социально-гуманитарный вестник». – 2013.- № 1.- С.31-36.; Ильин А.Ю. (2007) Формирование организационно-правового механизма налогового контроля в современных условиях: автореф. дис. канд. юрид. наук: 12.00.14. – М. – 27 с. Advokatova A.S. Налоговый контроль в условиях модификации отношений налоговых органов и налогоплательщиков: диссертация ... кандидата экономических наук : 08.00.10. – Москва, 2019. – 229с.

⁵ Toshmatov Sh.A. Korxonalarни ривожлантиришда солиқларнинг роли. Монография. – Т.: «Фан ва технология», 2008. – 204 б.; Toshmurodova B.Э. Солиқлар воситасида иқтисодий ти бошқариш механизми. – Т.: «Янги аср авлоди», 2002. – 128 б.; Иминов О.К., Тўраев Ш.Ш. Солиққа тортишни таҳлил этишининг долзарб масалалари. – Т.: «Академия», 2002. – 204 б.; Шарипов Ф.Ф. Ўзбекистонда ташқи савдони тартибга солишда солиқ сиёсатини такомиллаштириш: Иқтисодий фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2019. -180 б.; Асқаров Н.И. Ўзбекистон Республикаси ташқи савдо ва божхона соҳаларини уйғун бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмининг такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. –Тошкент, 2016.-242 б.; Кузиева Н.Р. Хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолиятини рағбатлантиришнинг молия-кредит механизмининг такомиллаштириш йўналишлари: Иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Тошкент, 2008.-40 б.; Эргашев И.О. Миллий борозни ҳимоялашда аксиз солигини ҳисоблаш услубиётини такомиллаштириш. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. – Тошкент, 2011. -22 б.; Мингишов Л.Ў. Ўзбекистоннинг экспорт рақобатбардошлигини оширишнинг асосий йўналишлари: Иқтисодий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. –Т.: «Академия ноширлик маркази», 2018. <http://library.ziyounet.uz/uz/book/99275>.; Тўхсанов К.Н. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиққа тортишни такомиллаштириш: Иқтисодий фанлари бўйича

Mavzu doirasida hozirgi paytgacha o'tkazilingan ilmiy tadqiqot ishlari va amalga oshirilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan tashqi tijoriy munosabatlarda soliq nazoratini takomillashtirish masalalari kompleks, chuqur va tizimli tarzda o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiyada tadqiqot olib borilgan hamda o'rganilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliq nazoratini aynan, xalqaro savdodagi ahamiyatini o'rganish asnosida, uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tashqi tijoriy munosabatlarda undiriladigan soliqlarning ahamiyatini asoslab, uni to'liq ochib berish;

savdo operatsiyalarining xalqaro darajasida soliq nazoratini amalga oshiruvchi iqtisodiy bo'g'inlar faoliyatini o'rganish;

soliq nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mezonlarini keng yoritish;

xalqaro savdo doirasida undirilgan soliqlar o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish, olingan ma'lumotlarni ekonometrik modellar orqali tahlil qilish;

фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. – 61 б.; Кузиев Р.Р. Эркин иқтисодий ҳудудлар фаолиятини Солиқлар воситасида рағбатлантириш: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. - Тошкент, 2021. – 60 б.

xizmatlar importi uchun to‘langan soliqlarga ta’siri sezilarli bo‘lgan omillar, ularning ahamiyatini tahlil qilish;

xalqaro savdo munosabatlarida soliq nazoratini yanada takomillashtirish orqali davlat byudjetining daromadlarini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda xalqaro savdoda soliq nazoratini o‘tkazish mexanizmi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tashqi tijorat operatsiyalarida soliq nazoratini o‘tkazish jarayonidagi moliyaviy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada ilmiy mushohada, induksiya, deduksiya, ekspert baholash, iqtisodiy va statistik usullar, ekonometrik tahlil modellaridan va usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi takliflardan iborat:

chet mamlakatlar fuqarolari tomonidan respublikamiz hududidagi chakana savdo bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlaridan xarid qilingan ba’zi turdagi tovarlar uchun to‘langan qo‘shilgan qiymat summasini fuqarolarning o‘zlariga qisman qaytarish tizimini joriy etish natijasida xalqaro savdo aylanmasini soliq dastaklari yordamida rag‘batlantirish asoslangan;

tovarlarni «import» va «eksport» bojxona rejimlari orqali deklaratsiya qilishda ularni rasmiylashtirish uchun undiriladigan bojxona bojlari stavkalarini Jahon savdo tashkiloti talablariga rioya qilgan qolganda birxillashtirish asosida xalqaro tijoriy munosabatlarda soliq nazoratini takomillashtirish taklifi asoslangan;

stata modeli ya’ni ekonometrik tahlillar orqali qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining pasaytirish natijasida soliq nazoratini yaxshilash taklifi isbotlangan;

xalqaro savdo ishtirokchilari ya’ni soliq to‘lovchilarga o‘tkazilgan soliq nazorati turlari natijalari ustidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudlarga o‘zlarining

shikoyatlarini bildirish imkoniyatini berish orqali o'tkaziladigan nazoratning korrupsion holatlarsiz adolatliligi hamda shaffofligini ta'minlash taklifi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari sifatida quyidagi tavsiyalarni keltirish mumkin:

iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qilingan eksport darajasi ushbu operatsiyalar doirasida to'langan soliqlarga ta'sir qilib, bu ko'rsatkichning ortishi savdoning xalqaro darajasi bo'yicha soliq tushumlarining o'sishiga turtki bo'lishi ekonometrik tadqiqotlar orqali asoslangan;

xalqaro savdo munosabatlarida undirilgan soliqlarga inflatsiya darajasi ham sezilarli ta'sir qilishi aniqlanib, uni 1 punktiga pasayishi orqali soliqlarning byudjet daromadlaridagi ulushini 0.13 foizga oshirish mumkinligi asoslangan;

xizmatlar importi jarayonida undirilgan soliqlarga respublikamizning korrupsiya bo'yicha butun dunyoda mamlakatlar o'rtasidagi o'rnining ahamiyati aniqlanib, korrupsion holatlarni kamaytirish orqali ya'ni korrupsiya indikatorini 1 punktga pasayishi soliq tushumini 0.073 foizga oshirishi isbotlab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida keltirib chiqarilgan ilmiy natijalarning ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan turli xil yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, to'g'ri tanlanganligi, foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, eng asosiysi, chiqarilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning soliq ma'murchiligida amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning soliq tizimida faoliyat yuritadigan vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini shu bilan izohlash mumkinki, tadqiqotda berilgan taklif va tavsiyalar tijoriy munosabatlarning xalqaro darajasida soliq nazoratini tartibga solish ya'nikim xalqaro tijoratda faoliyatini olib borayotgan soliq to'lovchilarning firibgariklari: soliqdan qochish holatlarini oldini olish, agar allaqachon amalga

oshirilgan bo'lsa, uni soliq nazoratini samarali tashkillashtirish orqali aniqlash, defitsit jarayonida davlat byudjeti daromadlarini oshirish, mamlakat ichki bo'lmagan savdo balansi mutanosibligini ta'minlashning nazariy hamda ilmiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini unda shakllantirilgan amaliy tavsiyalardan xalqaro tijoratda soliq nazoratini takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda moliya, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida "Soliq siyosati", "Soliq va soliqqa tortish", "Xalqaro soliqqa tortish" kabi fanlarni o'qitishda o'quv-uslubiy majmua tarkibi sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlash joizdir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro savdo-sotiq operatsiyalarida soliq nazoratini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiya va ilmiy takliflar asosida:

Respublikamiz rezidenti bo'lmagan fuqarolariga ular tomonidan O'zbekiston hududidagi donalab sotish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlaridan ayrim turdagi tovarlarni sotib olishda undirilgan qo'shilgan qiymat summasini qisman qaytarish tizimini joriy etish asosida xalqaro savdo aylanmasini soliq dastaklari orqali rag'batlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-noyabrdagi VM-653-sonli qarorida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 25-avgustdagi 15-87487-son ma'lumotnomasi). Yuqorida keltirilgan ilmiy taklifning amaliyotga keng tatbiq etilishi natijasida xorijiy fuqarolar tomonidan O'zbekiston hududida sotib olgan ayrim iste'mol tovarlari uchun to'langan qo'shilgan qiymat summasini qisman to'lovchilarga qaytarish tizimini joriy etish orqali savdo aylanmasining xalqaro darajasining hajmini oshirish imkoni yaratilgan;

«eksport» va «import» bojxona rejimlariga rasmiylashtirilayotgan tovarlar uchun undiriladigan bojxona yig'implari stavkalarini savdo munosabatlarning

xalqaro darajasi qoidalari asosida Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiq, unikallashtirish yordamida xalqaro tijoratda soliq nazoratini takomillashtirish taklifini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi PF-140-sonli Farmonida aks ettirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 25-avgustdagi 15-87487-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga qo‘llanilishi natijasida tashqi iqtisodiy faoliyatda soliq hamda bojxona nazoratini nafaqat soddalashtirish, balki takomillashtirish imkoni yaratilgan;

xizmatlar importi rasmiylashtiruv jarayonida byudjetga o‘tkazilgan soliqlarga ta’siri bo‘lgan iqtisodiy omil - qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining pasaytirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi 2022-yil 30-dekabrda “Soliq va byudjet siyosatining 2023 yil uchun mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-sonli Qonunida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 25-avgustdagi 15-87487-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2023 yil 1-iyul holatiga butun respublika bo‘yicha xizmatlar importida to‘langan egri soliq - qo‘shilgan qiymat solig‘i miqdori 376 milliard so‘mni tashkil etgan;

tashqi savdo ishtirokchilari ya’ni soliq to‘lovchilarga ularning korxonalarida o‘tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlari va nazoratning boshqa bir turi bo‘lgan soliq auditi natijalari ustidan to‘g‘ri iqtisodiy sudlarga shikoyat qilish imkoniyati berish o‘sha o‘tkazilishi rejalashtirayotgan soliq nazoratining adolatliligi hamda shaffofligi shu bilan birgalikda, korrupsiyalarsiz bo‘lishini ta’minlash taklifi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14 avgustdagi VM-382-sonli Qarorida inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq Qo‘mitasining 2023-yil 25-avgustdagi 15-87487-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning

amaliyotga joriy etilishi oqibatida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy ta'sirini bir necha barobarga ko'paytirish hamda mamlakatda tadbirkorlarga yaratib berilayotgan hamda umumli foydalanish talab qilayotgan sharoit va imkoniyatlarni yanada kengaytirish hamda o'tkazilishi belgilangan soliq nazoratlarining shaffofligi hamda adolatliligini 1- o'ringa qo'ygan holda ta'minlash orqali soliq ma'murchiligini soddalashtirish kabi ustuvor vazifalar bilan soliq nazoratini takomillashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 6 ta, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 3ta, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot hajmi 96 betni tashkil etgan.